



Chet tillarni o`qitishda mediadan unumli foydalanish

Islomova Maftuna Ibrohimovna

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

Xorijiy tillar fakulteti magistranti

Tel: +998914099845

maftunaislomova2708@gmail.com

Tukhtayeva Farida Ismatullayevna

Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyoti

va tarjimashunoslik kafedra o`qituvchisi

Tel: +998995550524

f.i.tuxtayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o`qitishda mediadan foydalanish hamda uning o`qitish jarayonlaridagi ta`siri haqida bayon qilingan. Hamda siz medianing ba`zi turlari va ularning samaralari haqida ma`lumotga ega bo`lasiz.

**Kalit so`zlar:** Metod, metodika, media, axborot savodxonligi, audio materiallar, video materiallar, ko`rgazmalar, poster, broshura, audio tasmlar, filmlar, kompakt disk.

Abstract: This article describes the use of media in teaching foreign languages and its impact on teaching processes. You will also learn about some types of media and their effects.

Key words: Method, methodology, media, information literacy, audio materials, video materials, visual aids, posters, brochures, audio tapes, films, CDs.



KIRISH

Til o`rganish hozirgi tez sur`atlarda rivojlanib borayotgan davrning birlamchi talablaridan hisoblanadi. Yurtimizda ham bu borada keng ko`lamli islohotlar, yangiliklar qilinmoqda. Vaholanki, yosh kelajak uchun mustahkam poydevor tizimini shakllantirish bo`yicha yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tillarni o`qitish va o`rganishni ustuvor vazifa sifatida belgiladilar. “Biz raqobatdosh davlat qurishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o`quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. O`zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda”¹

Ingliz tili dunyo tillari qatorida yetakchi o`rinda borar ekan, aksariyat sohalarda rivojlanish uchun shu tilga murojaat qilar ekanmiz, ingliz tilini o`rganishga bo`lgan qiziqish va talablarni ahamiyatsiz qoldirish mumkin emas. Hozirgi kunda ayniqsa yurtimizda maktabgacha ta`lim muassasalaridan boshlab ingliz tilini o`rgatish takomillashib bormoqda. Bugungi kunda chet tillarni o`qitishda ancha ildamlab olishga erishdik, ammo aniq va mustahkam tizim yaratish uchun yana izlanishimiz va o`rganuvchilar bilan ishlashimiz kerak bo`lgan masalalar bor.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tillarni o`rgatish sohasida faoliyat olib borayotgan ko`plab mutaxassislarimiz, o`rganuvchilar doirasi, bilim salohiyati, qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib dars o`tish jarayonlarini turli interaktiv, samarali usullar bilan turli ko`rgazmali ish qurollari va albatta video materiallar bilan tashkil qilishmoqda. Chet tillarni o`rgatish samarali natija berishi uchun ko`p jihatdan til o`qitish metodikasi masalalarini nazariy jihatdan hamda amaliy

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6 may kuni chet tillarini o`qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig`ilishi



jihatdan bilish va tadbiq eta olishga borib taqaladi.² Metodika o'zi nima va nima uchun kerak? Metodika-qanday o'rgataman ya'ni qaysi usul va vositalar hamda texnikalar orqali maqsadga erishish demak.³ Ko'p yillar davomida O'zbekiston ta'lim sistemasida chet tillarni o'qitish asosan yozma darsliklarga tayangan va asosiy urg'u tillarning grammatik qoidalariga berilib, mavzuga oid mashqlar bajarilgan. Bugungi kunning talab va istaklari tufayli darsliklar, dars o'tish jarayoni yangicha metod va uslublarni talab qiladi. Shundan kelib chiqadiki, til ko'nikmalarini shakllantirishda media hamda video materiallardan foydalanish zamonaviy hamda samarali o'quv vositasiga aylanishi mumkin. Ushbu maqolada dars jarayonlarida yuqorida ta'kidlangan materiallardan foydalanish qanday natijalarni keltirib chiqarishi haqida yoritilgan.

Dars jarayonlarida mediadadan foydalanish va albatta o'rgatuvchi shaxsda media savodxonligi bo'lishi juda muhim. Chunki o'rgatish jarayonida mediadan foydalanishning o'zi bir mashaqqat bo'lsa, uni to'g'ri tanlay olish boshqa mashaqqat deydi olimlar.⁴ Bunga asosiy sabablardan, o'rganuvchilarning yoshi, bilim darajasi, qiziqishlari va qobiliyat hamda kamchiliklarini misol keltira olamiz.

Media nima, mediaga oid materiallar deb nimani tushunamiz? Media axborot savodxonligi va ma'lumotlar to'plami yoki unga ma'lumot tashuvchi vosita sifatida qaraymiz. Ularga misol sifatida audio va video materiallar, ko'rgazmalar, radio eshittirishlar, jurnal va gazetalar, broshuralar, filmlar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Tilshunoslar o'z

² Zayniddin Sanakulov; Bakhromjon Joraboyev. Chet tilini o'qitish metodikasida zamoviy metodlar. *Academis research in educational sciences*. Volume 2; Issue 4; 2021. 524-525p

³ Zayniddin Sanakulov; Bakhromjon Joraboyev. Chet tilini o'qitish metodikasida zamoviy metodlar. *Academis research in educational sciences*. Volume 2; Issue 4; 2021. 525p

⁴ Film as a media used by teachers to teach writing for tertiary level students. Ardayati STKIP PGRI Lubuklinggau. *Journal of Linguistics, English Education and Art*. 185-186



izlanishlarida mediadan dars davomida foydalanish ko'pgina yaxshi natijalarga keltiradi deya topishdi. Ular quyidagicha:

- media materiallari juda ko'p ma'lumotni yetkaza oladi hamda bu o'quvchilarni eshitishga, muhokama qilishga va yozishga ruhlantira oladi;

- mediali prezentatsiyalar namoyish etish orqali o'quvchilarning birga ishlash, muloqot qilishi uchun yetarli imkoniyat hosil bo'ladi;

- o'qituvchida xohlagan mavzuni turli yo'llar va usullar hamda ko'rinishlarda taqdim eta olish imkoni bo'ladi va o'rganuvchilar bilan turli xil mashqlar bajara oladi.

- medialar o'rganuvchining tajribasini orttiradi, real faktlarga asoslangan vositalar o'quvchida mustahkam tushuncha hosil qiladi ⁵

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, medialardan foydalanishning o'zi 3 ga bo'linadi:

Audio materiallar – video materiallar - aralash turdagi materiallar.

Birinchi turga asosan eshitish orqali olinadigan ma'lumotlar. Yozib olingan audio tasmlar, telefon yozuvlari va kompakt disklar va ular asosan olib yurishga qulay hamda doimiy ishlatish uchun ayni muddao. Ayniqsa eshitish qobiliyati kuchli o'rganuvchilar uchun qo'l keladi.

Ikkinchi turdagi video materiallar asosan ko'rish orqali ma'lumot tashuvchi media hisoblanib, ular rasmlar, diagrammalar, poster va broshuralar bo'lishi mumkin. Bu turdagi medialar o'quvchi e'tiborini tez jalb etish bilan birga yaxshi esda qolish xususiyatiga ega.

Aralash tipdagi media ham ovozli ham ko'rinishga ega bo'lgan materiallar ular asosan multfilmlar, kinolar va ko'rsatuvlar bo'la oladi.⁶

NATIJA VA XULOSA

⁵ Film as a media used by teachers to teach writing for tertiary level students. Ardayati STKIP PGRI Lubuklinggau. *Journal of Linguistics, English Education and Art*. 186-187

⁶ Riyana, C. (2012). *Media Pembelajaran*. Jakarta: DIRJEN Pendidikan Islam Kementrian Agama RI. 41p



Demak media bu axborotlar to'plami, ishlatish uchun qulay, olib yurish oson materiallar hisoblanadi. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan dars xonalarida bemalol darsliklar o'rnini bosa oladigan monitorlar yorqin va har qanday tavsirni bemalol kattalashtiradigan moslamalar orqali dars o'tish dars sifatini oshiribgina qolmay, o'quvchida bo'lgan qiziqishni oshiradi. Til ko'nikmalarini samarali oshiradi. Buning uchun barcha ta'lim muassalarida o'qituvchi kadrlarning media savodxonligini oshirish va kerakli jihozlar qo'llanma va materiallar bilan ta'minlash kifoya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Film as a media used by teachers to teach writing for tertiary level students. Ardayati STKIP PGRI Lubuklinggau. Journal of Linguistics, English Education and Art. 185-186
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6 may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi
3. Zayniddin Sanakulov; Bakhromjon Joraboyev. Chet tilini o'qitish metodikasida zamoviy metodlar. Academis research in educational sciences. Volume 2; Issue 4; 2021. 524-525p